

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi

Ministry of Higher Education,  
Science and Innovations of The Republic of  
Uzbekistan

"TURAN INTERNATIONAL  
UNIVERSITY"

"TURAN INTERNATIONAL  
UNIVERSITY"

---

---

**"YANGI O'ZBEKISTONING TARQQIYOT DAVRIDA FAN,  
TA'LIM VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI  
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI"  
MAVZUSIDAGI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami**



## Taxririyat a'zolar

### Najmidinov Axadxon Xamidxonovich

Bosh muharrir Turan international university ta'sischi

### Akramov Abduvali Mamatxanovich

Turan international University Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),dotsent,Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

### Iplina Aleksandrovna Antonina

Turan international University Filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

### Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Tarix fanlari nomzodi,dotsent

### Dr. Megala Rajendran

Director - Research Center, Professor, Faculty of Humanities & Pedagogy, Turan International University,

### Dr. Prakash.A ,

Professor, Department of English,  
Vel Tech Rangarajan Dr. Sagunthala R&D Institute of Science and Technology, Avadi, Chennai, India,

### Ziyodulla Hakimov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,iqtisodiyot fanlari doktori

### Shuhratjon Muxidinov

Namangan muxandistlik-texnalogiya instituti dotsenti,iqtisodiyot fanlari doktori

### Surayyo Misirova

Namangan muxandistlik-texnalogiya instituti dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori

### Nurullo Soomro

Texnika fanlari doktori, professor(Turkiya)

### Hans Holzhacker

«Namangan Institute for Sustainable Trade and Development» Ilmiy tadqiqot institute direktori ,Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

### Abdusamiyev Dilmurod Abdug'aniyevich

Turan International University Pedagogika va filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ,v.b.dotsent

### Azizov Ma'rufxo'ja Ahmadxonovich

Turan International University Sirtqi ta'lim fakulteti decani,Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), v.b dotsent

### Turg'unov SherAli Dolixonovich

Turan international University Gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti dekanı,Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) , Universitet datsenti

### Usanov Ravshan To'rayevich

Tojikiston Respublikasi Akademik Bobojon G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti madaniyatshunoslik kafedrasi mudiri,falsafa fanlar nomzodi,dotsent

### Abdulazizov Bahrom Toshmirzayevich

Namangan Davlat Universiteti Fizika kafedrasi mudiri, Fizika-matematika fanlari doktori, v.b. Professor

### Jalalov Ravshanbek Mahmudxonovich

Namangan davlat universiteti magistratura bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent.

### Gulbahor Soliyeva

Namangan muxandistlik-texnalogiya instituti dotsenti, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

### A.N. Ryahovskaya

Doctor of economic sciences, prof., Rector at Institute for Economics and Anti-Crisis Management (Moscow, Russia)

### G.J. Alibekova

Phd., associate professor, Deputy director for Science, Institute of Economics (Almaty, Kazakhstan)

### I.V. Onyusheva

PhD, research professor, Stamford International University (Bangkok, Thailand; Yangon, Myanmar)

### Azimjanov Nazirbek

Turan international University Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

### Texnik Muharrir

Mamatkarimov Ilyosbek Baxriddin o'g'li



## YOSH AVLOD ONGIDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYA VA TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.

**Qo’ldoshev Rustam,**

Buxoro davlat pedagogika instituti

**Rahimova Mahliyo,**

Buxoro davlat universiteti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarni ekologik tarbiyalashning pedagogik nazariya va amaliyotdagi ustuvor yo‘nalishlari, ekologik ta’lim-tarbiya va tafakkurini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik ta’lim o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi ekanligi ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik ta’lim-tarbiya, tafakkuro o‘quvchi, vosita, tabiiy resurslar.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы приоритеты экологического воспитания учащихся в педагогической теории и практике, вопросы экологического воспитания и развития мышления. Также научно обосновано, что экологическое образование — это система знаний, представляющих взаимоотношения природы и человека, которые должны быть переданы учащимся.

**Ключевые слова:** экологическое образование и воспитание, мышление, ученик, среда, природные ресурсы.

**Annotation.** This article analyzes the priorities of environmental education of students in pedagogical theory and practice, issues of environmental education and the development of thinking. It is also scientifically proven that environmental education is a system of knowledge representing the relationship between nature and man, which should be passed on to students.

**Keywords:** environmental education and upbringing, thinking, student, environment, natural resources.

Hozirgi kunda respublikamizda barcha yo‘nalishlar qatorida ekologiya, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ta’lim-tarbiya sohasida to‘laqonli amaliy ishlar olib borilmoqda . O‘zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyasining 49-moddasida “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega”, 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” [1], shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlar, sohaga doir boshqa me’yoriy hujjatlar ekologik ta’lim-tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi.

Ta’lim sohasida ekologik bilimlar ekologik tafakkur uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki ekologik bilim tabiiy sabab-natija munosabatlari va qonuniyatlar haqidagi bilim hisoblanadi. Aynan ekologik bilimlar tabiatshunoslikning ma’nosini ochib beradi va bu jarayonlar natijasidagi jarayonlarni, shuningdek, tirik tizimlarning xususiyatlarini tushunishga imkon beradi, shuningdek faqat ekologik tafakkur nuqtai nazaridan dunyoni bir butun sifatida idrok etish mumkin [3].

Ekologiya fanining tarixi tabiiy fanlarning taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog‘liqdir. Qadimgi yunon olimi Aflatun (Aristotel eramizgacha bo‘lgan 384-322 yillar) dunyoning paydo bo‘lishi haqida fikr yuritib, tabiatdagi barcha mavjudot bir-biri bilan bog‘liqdir, degan. U 500 dan ortiq hayvon turlarining yashash tarzi to‘g‘risida yozib, unda ekologiyaga oid ko‘plab fikrlarni olg‘a surgan. Aflatunning shogirdi Teofrast Ereziyskiy (eramizdan oldingi 378-280 yillarda yashagan) o‘simgiliklar dunyosini o‘rganib, ularning turli sharoitda har xil shaklda (daraxtsimon, butasimon va o’tsimon) bo‘lishlarini qayd qilgan. Ularning inson hayotidagi rolini alohida ta’kidlagan. Gippokrat (eramizgacha 460 - 370 yillar) inson salomatligiga suv, havo va u yashab turgan muhit nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatishini qayd qilgan edi [2].

“Sharqda tabiat va inson haqidagi ilk saboqlarni Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” beradi. “Avesto” nihoyatda yirik meros bo‘lib, unda barcha sohaga tegishli qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan beba ho yodgorlikdir. Undagi asosiy mazmuni inson tabiat unsurlaridan yaralgan noyob, otli, o‘z harakatlari oqibatini anglay oladigan mavjudot bo‘lib, tabiatga nisbatan befarqlik insonga nisbatan befarqlik, tabiat va inson yaratuvchisini tan olmaslik deb hisoblanishidir”[4]

Islomdan avval zardushtiylik dinida tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darra kaltaklangan. Suvga hurmat islam dinimizda ham saqlanib qolgan.



Mana shu hurmat ta’sirida xalqda ko‘plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyatlar, ertaklar vujudga kelgan.

Tabiat va inson to‘g‘risidagi ta’limot keyinchalik Sharq uyg‘onish davriga kelganda, ya’ni ilm-fan taraqqiyoti davrida yanada shakllandi. Sharq falsafasi yetakchisi Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: “Dunyo, tabiat xudo tomonidan qisqa muddat ichida yaratilmagan. Tabiatning bu holga kelishiga qadar bir qancha vaqt o‘tgan, jarayonlar o‘tgan”. U inson tabiat taraqqiyotining mahsuli bo‘lib, hayvonot olamidan farq qiladi, inson – bilish subyekti, tabiat esa uning obyekti deb biladi. Tabiatning olamdan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjudligiga Forobiy shubha qilmaydi, obyekt subyektga qadar mavjud bo‘ladi.

Abu Ali ibn Sino tashqi muhitning odamlar tanasiga ko‘rsatadigan ta’siri, ular sog‘ligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiyena to‘g‘risidagi fikrlar alloma tomonidan yaratilgan “Tib qonunlari” asarining bosh g‘oyalari sanaladi. Mutafakkirning “Agar havoda chang va g‘ubor bo‘lmaganida edi, inson ming yil umr ko‘rgan bo‘lar edi”[5] degan mashhur iborasi esa o‘quvchilarda havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon yetkazmaslik ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Ekologik ta’lim zamонавиј о‘qитишнинг о‘загига аylanib bormoqda va uning zamонавиј тизимларини ва умуман жамиятни qayta qurishning kalitidir. Shunday qilib, ekologik ta’limning yangi axloqning asosi va odamlarning amaliy hayotining ko‘plab masalalarini hal qilishda qo’llab-quvvatlash roli bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. O‘quvchilarni ekologik tarbiyalash o‘qituvchining eng muhim vazifasi ekanligi sababli ushbu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda, shuningdek o‘quvchilarda tabiatga muhabbat va hurmatni shakllantirish xususiyatlari T.A. Bobyleva, L.D. Bobyleva, A.A. Pleshakova, L.P. Saleeva va boshqalar asarlarida ochib berilgan. Bu mualliflar ekologik tarbiyaning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, shartlarini ochib beradilar, jumladan ekologik ta’lim vositalari, shakllari va usullari tavsifini A.N. Zaxlebniy, N.A. Gorodetskaya, A.A. Pleshakov asarlarida topamiz.

XVII–XVIII asrlardagi ekologik ma’lumotlar tirik organizmlarning ayrim guruhlarini o‘rganishga qaratilgan edi, J. Byuffon (1707-1778) hayvonlar tuzilishida



tashqi muhit ta’sirini ko‘rsatdi. J.B.Lomark (1774-1829) evolutsion ta’limotni o‘rtaga tashlab, hayvon va o‘simliklar evolutsion o‘zgarishlarida eng muhim omil bo‘lgan tashqi muhit ekanligini aytdi.

1859-yilda Ch.Darvin “Tabiiy tanlanish yo‘li bilan turlarning kelib chiqishi” asarida ekologiya tushunchasini quyidagicha ochib beradi: “Tabiatda yashash uchun kurash, ya’ni tur bilan muhit o‘rtasidagi har qanday qarama-qarshiliklarning ko‘rinishlari tabiiy tanlashga olib keladi va bu evolutsiyaning harakatlantiruvchi kuchidir”[4].

Tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta’lim – tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyotda qo‘llash, ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta’lim-tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg‘un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda, shu sababli, aholining ziyoli qatlamini, soha mutaxassislarini, oliy ta’lim muassasalari talabalarini ekologik kompetentli qilib rivojlantirish, ta’lim maqsadlari mazmuni, vosita va metodlarini belgilash, valeologik, ekologiyaga oid bilimlarini kengaytirish, ilmiy asoslangan o‘quv materiallari va qo‘llanmalarni ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy etish dolzarb pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi.

Ekologik ta’lim va tarbiya bugunning dolzarb masalalaridan biri, chunki har bir insonda o‘zi yashab turgan uy, ko‘cha, mahalla, qishloq va shaharni ifloslanishdan asrash, uni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, tabiiy maskanlarni asl holida saqlash va ulardan unumli foydalanish, yurtimiz tabiatini muhofaza qilish singari fazilatlarni shakllantirish ekologik tarbiyaning ajralmas qismidir. O‘quvchilarning ekologik tafakkurini yuksaltirish, atrofmuhitga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat ne’matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta’sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda ekologik ta’lim-tarbiyaning ahamiyati ham nihoyatda yuqori, zero, ekologik ta’lim-tarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir, shuningdek, ekologik ta’lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli



ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehrmuhabbat uyg’otish hamda tejamkorlikka o’rgatishda qo’l keladi.

Ekologik bilimlar odamlar o’zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog’langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas’ullik hissini tarbiyalash, hayvonot va nabotot olamini asrash obyektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi, mazkur ishlarni amalga oshirishda keng jamoatchilikning o’rni ham beqiyos.

Ekologik ta’lim deganda o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik ta’limni shakllantirishda tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan samarali foydalanish, prinsiplarini o’zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ekologik savodxonlikka erishish yo‘lida ekologik bilim darajasini oshirish mamlakatimizda o‘z uy va mahallamizda bo‘layotgan tabiiy muammolarni anglash va unga ongli munosabat bildirish, atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar to‘g‘risidagi ma’lumot berish muhim ahamiyatga egadir. Ekologik ta’lim berishda yosh avlodning tabiat va jamiyatga nisbatan ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik nuqtayi nazardan munosabat bildirish va ekologik bilimlarini oshirib borish maqsadga muvofiqdir. O’sib kelayotgan yoshlarning ekologik tafakkuri asosiy diqqat markaziga qo‘yilmasa, keljak avlodga ona tabiatning jami ne’matlari to‘la-to‘kis yetkazib berilmasligi va insoniyat kelajagining tanazzulga yuz tutishini ta’kidlab o’tish lozimdir.

Ekologik madaniyat-kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his ekologik tarbiyalashish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishga qatnashishga tayyorgarligi hisoblanadi.

Ekologik savodxonlik va madaniyat ijtimoiy ta’lim-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, mehnat jamoalari, mahalliy boshqaruv organlari, ichki ishlar xodimlari, prokuratura, sud, ommaviy axborot vositalari singari davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.



Ekologik ong – ekologik tafakkur va ekologik madaniyat bilan uzbek bosqichlari; ekologik tafakkur – agar u o‘quvchida maxsus tashkil etilgan o‘quv-bilish faoliyati bilan shakllantirilsa, ekologik ongni ishga solishi, ishlatali mumkin bo‘lgan vositaga aylanadi. Ekologik madaniyat ekologik ong tufayli vujudga keladigan insoniy fazilat [5]

Ekologik tarbiya-insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta’lim-tarbiya umumiy ta’lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, maktabda barcha fanlarni o‘qitishda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik tarbiya va ta’limni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, ular doimo o‘zaro aloqada rivojlanadi va shaxsning tabiatga bo‘lgan insoniy munosabatlarini tarkib toptiradi. Ekologik tarbiya muammosi O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassalarida mashg‘ulotlar va darslar, tabiiy fanlarni o‘tish orqali amalga oshirilishi zarur. Ular asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi.

- bolalarda ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish, ularda tabiatga bo‘lgan ijobiy munosabatni uyg‘otish va tabiiy fanlarga doir dastlabki ko‘nikmalarni ishlab chiqish.

- o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya beruvchi mutaxassislarining ekologik ongi va madaniyatini rivojlanterish.

Bugungi globallashuv sharoitida barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoxda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlanterish jarayonida o‘zaro bog‘liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo‘nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

birinchisi, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish;

ikkinchisi, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta’lim – tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashni



rivojlantirishdir. Bu yo‘nalishlarni umuminsoniy ma’nfaatlar negizida uyg‘un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o‘ynaydi.

Bizning fikrimizcha, ekologik ong, tafakkur va dunyoqarash, madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish, madaniy-ma’rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va uslublaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tabiat, yer, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida xabarlar berish bilan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan e’zoz uyg‘otib, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish borasida ekologik ta’lim - tarbiya beshigi rolini o’tashi lozim. Insoniyatni kun sayin o’sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni barqarorligini ta’minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har birimiz ekologik bilimlarga ega bo‘lmog‘imiz zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. P.S.Sultonov “Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari” o‘quv qo‘llanma.T.”Musiqo” nashriyoti 2007y.240b.6- b
3. Tojiboyeva S. Bioliya darslarida abu ali ibn sinoning tabiat va inson salomatligiga oid qarashlaridan foydalanish. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2018-yil. 12-son. 43-bet.
4. A.S.To‘xtayev Ekoliya o‘quv qo‘llanma T.O‘qituvchi nashriyoti 1998-yil.188 bet.10 b
5. I.Hamdamov, Z.Bobomurodova, E Hamdamova Ekoliya o‘quv qo‘llanma T.-2009 y 178 b.7-8-b.
6. Hikmatovna S. S. et al. Professional development of the teacher’s personality in the system of secondary special vocational education //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 2946-2949.



	Nazirov Azimjon	
95	<b>TALIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMPITENTLIKKA QO’YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR</b>	688
	Nurullayeva O’g’ilxon Ergashboyevna	
96	<b>O’QITUVCHILADA KASBIY IDENTIFIKATSIYA RIVOJLANISHINING YOSH VA KASBIY TAJRIBA BILAN BOG’LIQ XUSUSIYATLARI</b>	694
	Abdusamiyev Dilmurod Abdug’ani o’g’li	
97	<b>KIMYO FANINI O’QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALAR DAN FOYDALANISH</b>	704
	Xolboyev Orif Nurmatovich, Julboyev To’lqin Abduvaliyevich, Qahorova Noila Azimjon qizi, To’g’izboyev Begzod Xikmat o’g’li,	
98	<b>O’SMIRLARNING IJTIMOIY INTELLEKTINI RIVOJLANISHDA ORTDA QOLISHIGA ZAMONAVIY GADJET O’YINLARINING TA’SIRI</b>	710
	Ergashev Bunyod Shokir o’g’li, Jumaboyev Nurillo Xayrullo o’g’li	
99	<b>HISOBLASH USULLARI FANINI O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH</b>	715
	Toshboyev Sayfiddin Muhammaddinovich	
100	<b>KREDIT-MODUL TIZIMIDA O’QUV JARAYONINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH</b>	722
	Julboyev To’lqin Abduvaliyevich, Xolboyev Orif Nurmatovich, Ismatov Abduqodir, Boboqulova Ozoda Vohidjon qizi,	
101	<b>BOSHLANG’ICH SINFLARDA FONETIK KOMPETENSIYANING NAZARIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI</b>	728
	Naima Mamasidikova Toxirjon qizi	
102	<b>SHAXSGA YO’NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION METODLARNI TA’LIM JARAYONIDA QO’LLASHNING AHAMIYATI</b>	734
	M.E.Xallokova, N.M.Turg’unova, S.M.Qodirova	
103	<b>СПОРТ ТУРИЗМИ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.</b>	741
	М.Азизов	
104	<b>ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК ТАРБИЯСИ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ТАРГИБОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ.</b>	747
	Курбанов Гани Абилович, Аминжанов Курбон Хабибуллаевич, Хамидуллаев Фатхулла Лутфулла ўғли	
105	<b>УМУМТАЛЬИМ МАКТАБЛАРИДА ФИЗИКА ЎҚИТИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ</b>	758
	Саттаркулов Комил Рахматович, Алиев Нурбек Баходир ўғли	
106	<b>YOSH AVLOD ONGIDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYA VA TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.</b>	764
	Qo’ldoshev Rustam, Rahimova Mahliyo,	

# CERTIFICATE

## OF ACHIEVEMENT

THIS CERTIFICATE IS PROUDLY PRESENTED TO

**Rahimova Mahliyo**

FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION OF THE PAPER ENTITLED

YOSH AVLOD ONGIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA VA  
TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

"The Essential Issues of Advancing Science, Education, and Innovation  
Technologies in the Development Period of New Uzbekistan"  
International Scientific-Practical Conference

Turan International University Rahbari:

A.X.Najmitdinov

